PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING TIL VA MADANIYATDA TUTGAN O‘RNI

Jo‘raqulov Abror Raufovich
Samarqand davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada paremiologik birliklarning (maqol va matallarning) til va madaniyat tizimidagi o‘rni, ularning milliy mentalitetni aks ettirishdagi lingvokulturologik tabiati tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: paremiologiya, paremiologik birlik, lingvokulturologiya, olamning lisoniy manzarasi.

Til va madaniyat insoniyat tarixida bir-biridan ajralmas, chambarchas bog‘liq bo‘lgan ikki buyuk tushunchadir. Bu tushunchalar bir-birini to‘ldiradi, birisiz boshqasi mavjud bo‘lmaydi. Til nafaqat muloqot vositasi, balki millatning ruhiyati, urf-odatlari va tarixini avloddan-avlodga yetkazuvchi yagona quroldir, chunki o‘tmishda yaratilgan afsonalar, dostonlar, asarlar, tarixiy hujjatlarni faqat til orqali saqlab qolish mumkin. Har bir tilning milliy o‘ziga xosligi shundaki, undagi frazeologik va paremiologik birlik (PB)lar o‘sha xalqning dunyoqarashi va mentalitetini o‘zida aks ettirgan bo‘ladi. Shu bilan birga til kelgusi avlodlarga o‘sha xalq tomonidan yaratilgan madaniy merosni yetkazish uchun ham xizmat qiladi. Shuning uchun ham bejizga til – madaniyat ko‘zgusi deyishmaydi. Xalq tomonidan yaratilgan maqollar, matallar, xalq ertaklari, qo‘shiq va dostonlar o‘sha xalqning mentaliteti va milliy madaniyatini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Til va madaniyat tandemi ko‘p qirrali bo‘lib, unga madaniyatshunos, tilshunos, adabiyotshunos, faylasuf, psixolog, etnograf turlicha yondashadi. Biz esa bu tushunchaga tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘z munosabatimizni bildirmoqchimiz.

Paremiologik birliklarda milliylik tusi, xalqning milliy madaniyati har holda nisbatan ko‘proq ufurib turadi. Shu munosabat bilan, madaniyatlararo muloqot ehtiyojlarining ortib borish sharoitida XX asrning oxiri va XXI asrning birinchi choragida frazeologik va paremiologik birliklar ustida tadqiqotlar o‘tkazishga bo‘lgan qiziqish lisoniymadaniy nuqtai nazardan o‘sib bordi.

Turli xalqlarning hayoti, tarixi, e’tiqodi, urf-odatlari, an’analari haqidagi axborot va ma’lumotlarni o‘zida aks ettirgan paremiologik birliklar va ularning o‘ziga xos jihatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar dunyo tilshunos olimlari ishlarida allaqachon ko‘rsatib o‘tilgan. Maqol va matallar xalq madaniyatining bir bo‘lagi sifatida, ularning turli xalq va elatlar ma’naviy hayotida tutgan o‘rni va roli haqida ko‘plab atoqli tilshunos va adabiyotshunoslar o‘rganishgan.

Til va madaniyatning o‘zaro munosabatlari muammolari bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarning aktual vazifalari, manbalari yengil ko‘rib chiqilgan. A.N. Afanasev “Maqollar qadimdan shakllangan dunyoqarashga qo‘yilgan yodgorlik hisoblanadi”, deb yozgan edi [Afanasev 1996, b. 15]. Haqiqatdan ham paremiologik birliklar ajdodlarimiz donishmandligining yorqin ifodasi va asosiy manbasi hisoblanadi. Shuningdek, insoniyat tajribasini avlodlarga yetkazuvchi qurol va xotiralarni avaylab asrab saqlovchi xazina hamdir.

Paremiologik birliklarni lisoniy madaniy yondashuv bilan o‘rganish va tavsiflash mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida XX asrning 70-yillarida chet tillarni o‘qitish hamda o‘rgatish maqsadida nazariy va amaliy ehtiyojlar fonida rivojlana boshladi. Har qanday fan sohasida ham eng muhim masala bu - uning asosiy birkliklari, tushunchalarini ta’riflash va tasniflashdir. Ushbu pozitsiya nemis va o‘zbek tillaridagi paremiologik birliklarining lingvistik va madaniy tasnifi tadqiqotchilar ko‘rsatib o‘tganidek, Germaniya va O‘zbekiston tabiati, uning o‘simlik va hayvonot dunyosi, qishloq xo‘jaligi, an’anaviy hunarmandchiligi, nemis va o‘zbek oshxonasining o‘ziga xos jihatlari, xalq tabobati va davolanish usullari, savodxonligi, urf-odatlari, e’tiqodlari va boshqa jihatlar haqida ma’lumotlar bo‘lishi mumkin. Ushbu tasnif nemis va o‘zbek xalqlari hayotining yuqorida sanab o‘tilgan sohalarini qamrab olgan bo‘lib, ular olamning lisoniy manzarasining bir qismi sanaladi, ular haqidagi ma’lumotni paremiologik birliklarni chuqurroq o‘rganish orqali topish mumkin.

Paremiologik birliklar anglatgan ma’no asosan uning markaziy komponenti zimmasiga tushadi, markaziy mucha esa har bir paremiologik birlik tarkibida mavjud bo‘lib, u emotsional-ekspressiv obraz hosil qilishda muhim rol o‘ynaydi, bunday muchalar ma’no anglatuvchi, boz ustiga madaniy belgini amalga oshiruvchi va milliy-madaniy ma’lumotlarni tashuvchilardir. Bunday leksik birliklar til sohiblari uchun o‘ziga xos kalit bo‘lib, u yoki bu xalq madaniyatining nozik jihatlarini tushunishga xizmat qiladi.

Har bir tilda milliy-madaniy ma’lumotlarni tashuvchi leksemalar barcha tillarda metaforik birikmalarni hosil qilishda qo‘llaniladi. Ular paremiologik birliklarda ma’no shakllanishiga xizmat qiladi. O‘z navbatida tarkibida bunday komponentlar qo‘llaniladigan maqollar ushbu leksik birliklarning ramziy yoki metaforik ma’nolari asosida qurilgan bo‘ladi.

Paremiologik birliklarning obrazli asosi uning madaniy muchasini belgilashda asosiy vazifani bajaradi. Ma’lum bir xalq paremiologik fondini yaratish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, ularning inson miyasiga ta’sir etish doirasi ba’zan paremiologik birlik muchalari darajasida, ko‘pincha umumiy paremiologik birlik

ma’nolari darajasida hosil bo‘ladi, bu esa markaziy muchalar katta hajmdagi milliy-madaniy ma’lumotlarni o‘z ichiga mujassamlashtirganligidan hamda ma’no yo‘qolishining oldi olinishidan dalolat beradi. Natijada PBlar shartli ravishda qismlarga ajratilib, uning hosil bo‘lishi va nutqda faollashuvi tartibga solinadi.

Paremiologik birliklarda muhrlangan, ko‘z oldimizda gavdalanadigan obrazlar va ma’no lo‘ndaligi olamni bilishga kuchli ta’sir qiladigan o‘ziga xos “tasma” vazifasini o‘tovchi u yoki bu tarzda ma’lum bir xalqning ma’naviy yoki moddiy madaniyati bilan bog‘langan, shuning uchun ham ular u yoki bu xalqning milliy-madaniy tajribasi va an’analari haqida guvohlik berishi mumkin.

Tadqiqotchilar ilk bor paremiologik birliklarni ilmiy o‘rganishda xalq og‘zaki ijodining kichik janri deb qarashganlar. Ularga bunday qarash ushbu turdagi til birliklarning lingvistik mohiyatini ko‘rib chiqishni nazarda tutmaydi, shuning uchun paremiologik birliklarni o‘rganishning ko‘plab muhim jihatlari olimlar e’tiboridan chetda qolgan. Lisoniymadaniyatshunoslik ijtimoiy bilimlarning fanlararo sohasi bo‘lib shakllanib, o‘z navbatida, til tavsifida antroposentrik yondashuv bilan kognitiv tilshunoslik yutuqlariga tayangan holda til va madaniyatning o‘zaro aloqalari doirasida paremiologik birliklarni ilmiy tadqiq etish imkonini berdi [Телия 1996, b. 214].

So‘nggi yillarda o‘tkazilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining diqqat markazida paremiologik birliklarga milliy-madaniy e’tiborga, nufuzga ega bo‘lgan, nutqda har xil vazifalarni bajara olishga qodir, o‘zidan keyin paydo bo‘ladigan xuddi shu tarzdagi matnlar sifatida, har xil til sathlarida madaniy ma’lumotlarni saqlaydigan implitsit matnlar sifatida qarash yotadi.

PBlar ustida ilmiy izlanishlar olib borayotganlarning aksariyati bu birliklarning nutq va til oralig‘idagi maydonda joylashishini ta’kidlaydilar, chunki ular “kam darajada alohida muloqot pozitsiyasini tutib, matn sifatida voqelanadi. Ammo ularning takrorlanadigan tabiati va alohida holatda makromatndan ajralmagan holda qo‘llanilmasligi ularni til birliklari deb hisoblashga asos bo‘ladi” [Zimin 2008, b. 45].

Paremiologik birliklarni pragmatik nuqati nazardan o‘rganuvchi tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, ularning “standartdlashgan shakli” ulardagi pragmatik va semantik jihatlarning uyg‘unligi bilan izohlanadi. “Ularning takrorlanuvchanligi, birinchi navbatda, ular muayyan pragmatik munosabatlar va o‘ziga xos tabiatini ifodalashning maxsus shakllari (ogohlantirish, ishontirish va tinchlantirish) o‘z isbotini topgan. Bunday holda, ular lisoniy mavjudlikning an’anaviy modelining an’anaviy shakli sifatida yaqqol ko‘zga tashlanadi [Sidorkova 1999, b. 11]. Dunyo tillarining barchasida paremiologik birliklar tarkibida hayvon va

o‘simliklar nomlari milliy mentalitetdan kelib chiqib, u yoki bu xalqning tashqi va ichki dunyosini, uning ruhiy holatini, moddiy va ma’naviy jihatlarini yoritib berish maqsadida qo‘llaniladi. Masalan, nemis tilida: “Ein gutes **Pferd** braucht keine Sporen” (SWL[7], S. 93) – *tarj.* ‘Yaxshi **otga** niqtov kerak emas’; “Die besten **Kirschen** fressen die **Vögel**” (SWL, S. 78) – *tarj.* ‘Eng yaxshi **olchalarni qushlar** yeydi’. – *muq.* “**Qovunning** sarasini **it** yer, **Olmaning** sarasini - **qurt**” (O‘XM[8], b. 93); “Des Sommers **Blumen** welken im Herbst” (SWL, S. 542) - ‘Yozgi **gullar** kuzda quriydi (so‘liydi)’; o‘zbek tilida: “**Bo‘ri** qarisa, **itga** kulgu bo‘lar” (O‘XM, b. 464); “**Arpa-bug‘doy** bir kuningga yaraydi, Sodiq do‘sting o‘lguningcha yaraydi” (O‘XM, b. 94); “Javzodagi yomg‘irdan **ilon** yog‘sa yaxshi” (O‘XM, b. 475);

Muayyan millatga xos bo‘lgan, xalqning yuragidan joy olgan paremiologik va frazeologik birliklar tarkibida markaziy va tayanch komponentlar qo‘llanishi ko‘p yillar davomida tilshunos tadqiqotchilarning e’tiborini tortib kelgan. Ushbu muammoga qiziqishning alohida ortishi til materiallarini va lingvokulturologiya masalalarini tavsiflashda antropotsentrik yondashuvning qo‘llanish doirasi kengayishi bilan bog‘liq.

Paremiologik birliklar diskursiv jihatdan kichik hajmli matn deb ko‘rilib, an’anaviy ravishda xalq og‘zaki ijodi mahsuli sifatida o‘rganilgan. Lekin XX asrning so‘nggi choragida maqol va matallar frazeologiyaning alohida bo‘limi - paremiologiya doirasida ilmiy jihatdan tadqiq etila boshlandi.

Rus tilshunosi V.V. Pavlov turk tillari fonida paremiologik fondning qardoshlik jihatini ko‘rib chiqadi va ularning qurilishi hamda ma’no jihatdan aloqadorligini aniqlaydi [Pavlov 2004, b. 157]. Umuman dunyo tillari paremiologik fondida o‘xshash tuzilish va o‘xshash mazmun mavjud bo‘lib, uning fikriga ko‘ra, tuzilish jihatdan ularning ba’zilari bitta kesim markazga ega bo‘lgan gap qoliplariga ko‘ra tuzilgan, boshqalari esa ikkita (kamdan kam hollarda uchta) kesimlik markazga ega bo‘lgan gap shakliga ko‘ra qurilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, PBlar qurilishiga ko‘ra, sodda gaplar, qo‘shma gaplar va murakkab gaplar ko‘rinishiga ega.

Har qanday ikki xalqning, ikki millatning, ikki tilning olam lisoniy manzaralari o‘rtasida shu tillar madaniyati uchun asosiy tushunchalar bilan bog‘liq o‘xshashlik va farqlar umumiy qadriyatlar tizimi mavjud.

Har qanday tilning frazeologik fondi ham, paremiologik fondi ham shu til sohiblarining madaniyati bilan chambarchars bog‘langan. Demak tilning paremiologik fondi zamonaviy tilshunoslikda lisoniy-madaniy soha turlaridan biri

[7] SWL – Sprichwörterlexikon: Beyer Horst und Annelies. Sprichwörterlexikon: Sprichwörter und sprichwörtliche Ausdrücke aus deutschen Sammlungen vom 16. Jahrhundert bis zur Gegenwart. – 2., unveränderte Auflage. – Leipzig: Bibliographisches Institut, 1985. – 712 S.

[8] O‘XM – O‘zbek xalq maqollari: Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005, 2019. – 512 b.

sifatida tadqiq etilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Lisoniymadaniyatda paremiologik birliklarning xalq ongining bir xilligini aks ettirishi muhim sanaladi. U yoki bu xalqning ushbu til birliklari ularning tili va madaniyatlarining kesishgan nuqtasidir. Bu birliklarni tilshunoslik ilmida aynan yuqorida aytilgan nuqtadan turib tadqiq etish yaqindan boshlandi. Paremiologik birliklar o‘rganilishiga pragmatik jihatdan nazar tashlasak, ular tadqiqot o‘tkazish uchun boy material, keng ko‘lamli tadqiqot maydoni bo‘la olishi mumkin. U yoki bu xalqning tilini, madaniyatini bilish, anglash kishini shu xalqning paremiologik birliklarining talqiniga yaqinlashtiradi. PBlar jamoaviy tafakkur natijasi bo‘lib, xalq o‘tmishi bilan bog‘liq tarixiy voqelikni o‘zida mujassam etgan. Ular xalq og‘zaki ijodi mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi, shuning uchun PB qaysi xalq, millatga mansub bo‘lsa, lisoniy-madaniy jihatdan shu xalqni tavsiflovchi o‘ziga xos belgi-xususiyat kodlarga ega.

Demak, paremiologik birliklarning madaniy va lisoniy xususiyatlari kesishmasi kishilarning olam lisoniy manzarasini idrok etishida muhim rol o‘ynaydi. Ularni tillararo qiyoslab o‘rganish turli tizimli tillar taqqoslanayotgan birliklarining o‘ziga xos milliy-madaniy jihatlarini aniqlashda samarali usul hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Beyer Horst und Annelies. Sprichwörterlexikon: Sprichwörter und sprichwörtliche Ausdrücke aus deutschen Sammlungen vom 16. Jahrhundert bis zur Gegenwart. – 2., unveränderte Auflage. – Leipzig: Bibliographisches Institut, 1985. – 712 S.
2. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005, 2019. – 512 b.
3. Афанасьев А.Н. Происхождение мифа: Статьи по фольклору, этнографии и мифологии. – Москва: Индрик, 1996. - 638 с.
4. Зимин В.И. Пословицы и поговорки русского народа: большой объясн. слов. – М.: Ростов н/Д.: Цитадель: Феникс, 2008. – 590 с.
5. Павлов В.В. Сравнительно-сопоставительный анализ структуры и семантики турецких и чувашских пословиц: Дисс… канд. филол. наук. – М., 2004. – 164 с.
6. Сидоркова Г.Д. Прагматика паремий: пословицы и поговорки как речевые действия. Монография. – Краснодар, 1999. – 250 с.
7. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.